

TILLARNI OQITISHDA MASOFAVIY OQITISHNING AHAMIYATI

Aktamov Alisher Shomamatovich

Jizzax davlat pedagogika instituti Chet tillar fakulteti talabasi

Annotatsiya : Mazkur maqola tillarni o'qitishda masofaviy darslarning ahamiyatiga bag'ishlangan bolib, unda masofaviy o'qitishning til o'qitishdagi qulayliklari, afzalliklari va uning kamchilik tomonlari keltirilib, ularga atroflicha ilmiy tavsiya va takliflar berilgan.

Kalit sozlar: Masofaviy ta'lim, eksternat tur, masofaviy ta'lim modellari, avtonom va integrallashgan o'qitish.

Bizga ma'lumki, ayni damda biz yashayotgan texnologiyalar asrida dunyo bo'ylab kundalik barcha muhim hodisalar masofaviy amalga oshirilib kelinmoqda. Ayni damda talabalar ham dunyo bo'ylab turli davlatlardagi nufuzli universitetlarda masofaviy ta'lim olib kelishmoqda. Ayniqsa hozirgi jiddiy sharoit masofaviy ta'limni taqozo etadi. Ushbu virus tarqalishni boshlagan bir paytda butun dunyo universitetlari va maktablari ananaviy ta'limdan masofaviy ta'limga o'tishni boshlashdi. Masofaviy talimga bu tariqa tezda o'tilishi talim sifatiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Albatta, masofaviy ta'limning bu tariqa boshlanishi o'qituvchi va talabalarni shoshiltirib qo'ydi.

Bu esa albatta, til o'qish va o'qitish borasida turli imkoniyatlarini yaratdi va shu bilan bir paytda o'ziga xos nuqson va kamchiliklari ham boldi. Bu borada dunyodagi turli o'qituvchilar ish olib borishdi. Ilmiy manbalarning tarixiy analitik tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, ko'plab yuqori malakali o'qituvchilar masofaviy o'qitish modellarini tuzishga o'z e'tiborlarini qaratishdi.

Shu jumladan, E.S. Polat rahbarligidagi jamoa masofaviy ta'lim tashkil etishda quyidagi 6ta modelni korsatishgan:[2].

1. Eksternat turi boyicha o'qitish.

Bunda turli qulayliklar mavjud. Bu talabalar va til o'rganuvchilar uchun samarali foydalanish imkonini beradi. Ayniqsa, til o'rganuvchilar uchun ta'limning bu turi sezilarli ahamiyatga ega.

2. Talabalar uchun Universitet masofaviy ta'lim modeli.

Bunda har bir fan uchun tayyorlangan va doimiy boyitilib turuvchi elektron kitoblar talabalarga yetkazilib beriladi. Bu esa albatta, chet tillarini o'rganayotgan talaba uchun kerakli kitoblardan elektron shaklda foydalanish imkonini yaratadi.

3. Dunyodagi bir nechta oliy ta'lim muassasalarining hamkorligidagi masofaviy ta'lim modeli.

Bu yo'nalishda bir nechta nufuzli universitetlar hamkorligida elektron kitoblar yaratiladi, bu esa ushbu kitoblarning mukammal hamda sifatli bo'lishiga zamin yaratadi. Bunday kitoblar talabalarga hamda til o'rganuvchilariga darslarni yaxshiroq o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi.

4. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari hamkorligidagi masofaviy ta'lim modellari.

Bu yo'nalishda hozirgi zamonaviy texnologiyalar talabalar, til va boshqa biror sohani o'rganuvchilar ta'lim olishlari uchun ishlab chiqilgan.

Oxirgi ikkita yo'nalish bu "Avtonom o'qitish hamda integrallashgan o'qitish"lar. Ushbu shakldagi o'qitish metodlari mustaqil ta'lim olish uchun tashkillashtirilgan bolib, televideniya, radioeshittirishlar talabalarning asosiy o'qitish vositalari hisoblanadi. Bu kabi tizimga Amerika televizion loyahasini misol qilib keltirishimiz mumkin.[1.].

Quyida keltirilgan barcha modellarda ta'lim xizmatlarining potentsial iste'molchilari, ommaviy axborot vositalari, radio va televideniye yoki boshqa bir ta'lim muassasasi tanlanib, kirish sinovlaridan o'tgan va ularning barcha zaruriy hujjatlari rasmiylashtirilgan, deb ko'zda tutiladi [3]

Ayni damda, turki davlatlar ushbu modellardan til o'rgatish va talabalarga dars berish maqsadida foydalanib kelishmoqda. Yuqorida ham masofaviy ta'limning o'qitish sohasidagi foydali tomonlari aytib otildi. Uning yana bir afzal tomoni, ular o'zlarining til o'rganishdagi mahoratlarini oshirish maqsadida turli foydali va kerakli materiallardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Misol uchun, ingliz tilini o'rganish 4 guruhga bo'linadi:

1. Eshitib tushunish.
2. O'qib tushunish.
3. Gapirish mahorati.
4. Yozish mahorati.

O'qituvchi talabalarga bularni o'rgatish paytida talabalarning ichidagi ba'zi talabalar darsni tushunmay qolishlari mumkin. Masofiy ta'lim bu muammoni yechishga yordam berdi. Unda dunyo bo'ylab barcha darslar Zoom platformasida va turli ijtimoiy tarmoqlarda olib borildi, va bu esa o'tilgan darslarni yozib olgan holda darsni o'zi xohlagan vaqt qayta ko'rish imkonini berdi. Va shuningdek, ular tilning qaysidir turiga tushunishmasa yoki shu haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishmasa, ularda ijtimoiy tarmoqdan turli video darsliklarni ko'rish imkoniyati paydo bo'ldi. Masofaviy ta'limning yana bir qulay tomoni shundaki, har kim o'zining yashayotgan hududidan turgan holatda o'zi xohlagan til oqitish markazlarida o'qish imkoniyatiga ega bolishdi. Misol uchun, Toshkentdagi eng zo'r oquv markazi "Cambridge education centre" masofaviy ta'lim boshlangan vaqtdan buyon qariyb 17000dan ortiq abituriyent va IELTS tayyorlanuvchilarini o'qitib kelmoqda.

O'qituvchilar uchun masofaviy ta'limning qulay tomonlaridan biri shundan iboratki, ularda dars berishdan tashqari, ularda avvalgiga qaraganda ko'proq vaqt paydo bo'ldi. Bu vaqt esa ularga o'z bilimlari ustida ko'proq ishlash yanada imkoniyat yaratdi.

Va shu bilan birga, masofaviy ta'limning o'ziga xos kamchiliklari va nuqsonlari mavjud. Misol uchun, til o'rganishda yuzma-yuz muloqotning yo'qligi, masofaviy olib borilayotgan darslarning an'anaviy darslardek sifatli va maroqli bo'lmasligi. Masofaviy ta'limning yana bir nuqson tomoni bu internet muammosi. Shu muammo ko'plab abituriyent, talaba va ota-onalar norozichiliga sabab bo'ldi. Ayni vaqtda, dunyo olimlari masofaviy ta'limning muammosiz ishlashi ustida izlanishlar olib borishmoqda. Ulardan masofaviy ta'lim uchun foydali bo'lgan ixtirolar va yangiliklar kutib qolamiz.

Yuqorilardan ko'rinib turibdiki, til o'qish va o'qitishda masofaviy ta'limning ahamiyati katta bo'ldi. Ko'rib turganimizdek, masofaviy ta'lim talabalar va til o'rganuvchilarga katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Полат Е.С. Моисеева М.В. Петгов А.У. Бухагкина М.Ю. Аксенов Ю.В. Югбункова Т.Ф. " Дистанционная обучения "
2. Maqsuda Tillashayxova " Masofaviy ta'lim modellari va ularni takomillashtirish istiqbollari ekspert baholash usuli orqali aniqlash "

3. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.:
Fan, 2009. 145 b.